

**RESPUBLIKAMIZDAGI MAVJUD TO'QIMACHILIK SANOATI
KORXONALARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNI YANADA RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI BO'YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR VA TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARINI EXPORTINI BAHOLASH**

Qaxramonov Muhammadali Abdullajon o'li

Namangan Institute of Engineering and Technology

Address: 7 Kosonsoy st, 160115. Namangan city, Republic of Uzbekistan.

E-mail: muhammadaliqaxramonov887@gmail.com, Phone:+998-94-027-98-18;

Anotatsiya: *Ushbu maqolada to'qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari, strategik xatti-xarakatlarni samarali tashkil etish, ularni rivojlantirish va yanada taraqqiy ettirish ko'zda tutilgan. To'qimachilik sanoatini qo'llab quvvatlashga doir me'yoriy hujjatlar, statistik ma'lumotlar o'rganilishi natijasida sohada mavjud bo'lgan muammolar tahlil qilingan. O'rganilgan tahlillar natijasida raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalari orqali korxonalarni rivojlantirish, mahsulotlarning sotuv hajmini va sifatini oshirish, jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun bir qator taklif va mulohazalar bildirib o'tilgan. Umuman olganda, amalga oshirilayotgan islohotlar to'qimachilik sanoatining uzoq muddatli barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Asosiy muammolarni hal qilish va to'qimachilik korxonalari uchun yanada qulay muhit yaratish orqali hukumat sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga va kelajakda jahon bozorida muvaffaqiyat qozonishi uchun mavqega ega bo'lishga intilmoqda.*

Kalit so'zlar: *to'qimachilik sanoati, rag'batlantirish raqobatbardoshlik, strategiya, brend, sifat, marketing, inson resurslarini boshqarish, texnologiya, investitsion loyihalar, tashabus.*

KIRISH

Mamlakatimizda 2016 yilda boshlangan yangi davrda to'qimachilik sanoati shiddatli darajada rivojlanib, O'zbekiston tub ma'noda to'qimachilik sanoatida ulkan burilish yasab, taraqqiy topa boshladi, va to'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining drayverlaridan biriga aylandi. Qisqa davr mobaynida, to'qimachilik va tikuv – tirkotaj(tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayon) sanoatini yanada rivojlantirish uchun zarur normativ xujjatlar va qulay sharoitlar yaratish, xalqaro standart talablar asosida faoliyat olib boradigan tuzilmalar tashkil etildi. Keying yillarda esa paxta tolasini chuqur qayta ishlash negizida yuqori qo'shilgan narxli, korxonalar bozorlarda talab qilinadigan tayyor to'qimachilik va tikish-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish belgilangan[1]. Shu bilan, Hozirgi kunda O'zbekistonda engil sanoat va to'qimachilik sohasi tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda. Yurtimizda qabul qilingan qator qaror va farmonlar, shu jumladan, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi hamda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.01.2023 yildagi PF-2-sonli "Paxta to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning export salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonlarida mamlakatimizda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot - 1,6 baravar oshirish hamda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2-3 baravarga oshirish, to'qimachilik sohasining eksport salohiyatini 2023 yil yakuniga ko'ra 5 milliard AQSH dollariga etkazish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini 65 dan 81 foizga oshirish hamda 35000 ta bo'sh ish joyini to'ldirish rejalashtirilgan. To'qimachilik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari davlat, hududlar va korxonalarining muvofiqlashtirilgan harakatlari orqali uzoq muddatli istiqbolda barqaror raqobatbardosh ustunliklarning yagona mexanizmini yaratish strategiyasiga asoslangan holda uni hal qilishda kompleks yondashuvga asoslanishi kerak. Bozor munosabatlari, tashkiliy – iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ayniqsa, aholining moddiy ahvolini yuksaltirish, marketing xizmati faoliyatini faollashtirishga muhim o'rin berilishi kerak[3]. Bizning keyingi yillarda eksport sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarimizning natijasidir. Respublikada keng turdagi sifatli to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari (keyingi o'rinlarda to'qimachilik mahsuloti deb yuritiladi) ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'tgan davr mobaynida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish uchun zarur huquqiy baza va qulay sharoitlar shakllantirildi[4]. O'zbekiston To'qimachilik sanoati 1990 yillarda yangi sifat o'zgarishlari bosqichiga o'tdi. Respublikaning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalari tobora kengayib, chet ellik sheriklar bilan barpo etilgan qo'shma korxonalar soni ko'payib bordi. O'zbekiston To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri jahon bozoriga paxta tolasini chiqarish emas, balki jahon bozorida raqobatbardosh ip gazlama ishlab chiqarishni ko'paytirishdan iborat strategiya tanlandi. Shu maqsadda AQSH, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlar firmalari bilann ip gazlama ishlab chiqaradigan yangi qo'shma korxonalar tashkil etildi va taxminan 519,89 miqdoridagi mln AQSH dollar sarmoya kiritildi[5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Ushbu qo'yilgan masala yuzasidan mavjud adabiyotlar tahlili to'qimachilik sohasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi va raqobatbardoshlik strategiyalari ko'plab yetakchi olimlar tomonidan sinchiklab o'rganib chiqilayotkinaligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, engil sanoatning raqobatbardoshlik strategiyalarini nazariy va uslubiy jihatlarini rivojlantirishga doir fikr mulohazalarini chet elda shu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan bir guruh olimlardan [1] Trevor J. Little , [2] Wong, W.K [3] Yuen, C.W.M L. [4]V.Shulgina, [5]M.J.Talaso ilmiy asarlarida bayon qilingan. Shu bilan bir qatorda, respublikamizning bir qator olimlari N.Q.Yo'ldoshev [6], B.Kattakishiyev [7], I.Mamayusupov[8], Ch. Nosirova va boshqalarning ishlarida ko'rish mumkin. Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlariga asosan shu narsa ma'lum bo'ldiki, yurtimizda to'qimachilik sohasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etishda raqobatbardosh strategiyalarning o'rni nihoyatda ahamiyatlidir.


Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning vositaviy-uslubiy apparati tizimli yondashuv doirasida tadqiqotning umumilmiy uslublari: mantiqiy va vaziyatli tahlil, expert baholash, so'rovnoma, kuzatish, intervyu, guruhlash, taqqoslash kabi taxlil vositalarini qo'llash. Shuningdek, to'qimachilik korxonalarini uchun yetakchi xorij mamlakatlarining zamonaviy johzlarini qo'llash orqali sifatli to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga asoslanadi. Ushbu vositalar tadqiqot olib borishning turli bosqichlarida turli kombinasiyalarda foydalaniladi, yakuniy natijalar, xulosalar va takliflarni ilmiy asoslanganligini ta'minlashga imkon beradi.

Tahalil va natijalar: O'zbekiston Respublikasi so'ngi yillarda xorij mamlakatlari bilan savdo aloqalarini yaxshilash maqsadida (ya'ni aynan to'qimachilik sanoati) da yangi rusumdagi texnologik jihozlarni milliy konrxonalarimizga o'rnatishni maqsad qilgan. Shuningdek so'ngi 6 yilda to'qimachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligi va sifati keskin oshganligi, mavjud xom ashyo bazasidan samarali foydalangan holda to'qimachilik va tikuv – tirkotaj korxonalarida yevropaning mashhur Rieter, Truetzschler, Lakshmi Machine Works (LMW), Saurer, Murata Machinery Ltd, Savio Macchine firmasining eng zamonaviy jihozlaridan foydalanib, yiliga 1,1 million tonna yuqori sifatli paxta tolasini qayta ishlab undan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarib, uni xorij mamlakatlariga eksport qilish yo'lga qoyilgan. Mamlakatimizda keying yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi. Quyida 2017 – 2023 yillar oralig'ida qancha miqdorda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilganligi va eksport qilingaligi haqida ba'tafsil ma'lumotlar berilgan. Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan choratadbirlar natijasida, O'zbekiston o'z mahsuloti bilan yevropa bozorlarigacha kirib bordi. So'nggi yillarda

yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi. To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xom ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin. 2017 yil yakuni bo'yicha to'qimachilik mahsulotlari eksporti umumiy eksport xajmida 8,1 foizni tashkil qildi. To'qimachilik mahsulotlari eksport hajmi 1133,2 mln. AQSh dollarini tashkil qildi yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,8 foizga oshdi. Shuningdek, to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2018 yilning o'tgan davri mobaynida 1603,1 mln. AQSH dollari miqdorida Toqimachilik mahsulotlari eksporti hajmi amalga oshirildi. Bu korsatkich 2017 yilning mos davriga nisbatan 41,4 %ga osib, umumiy eksport hajmining 11,2%ini tashkil qildi. Toqimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom ashyosini orniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qoshimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin. Jumladan, 2019 yilda 1,6 mlrd. AQSh dollarli to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 9,1 %ni tashkil etdi va otgan yilga nisbatan 1,3 barobarga oshdi. 2020 - 2021yillarda esa 1 922,2 mln. - 2 927,2 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 12,7 % - 17,6 % ini tashkil etdi va 2020 yilga nisbatan 18,1 % dan 52,3 % ga o'sdi. 2022 yilga kelib 3 178.0 mln AQSH dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 16,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 8,6 % ga o'sdi. Xususan, 2023- yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha 2 337,2 mln. AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 13,2 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 3,3 % ga kamaydi. Joriy yil boshidan 582 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 58 ta davlatiga eksport qilindi[7].

1.1 - jadval

2017 - 2023 yillar davomida O'zbekiston xorijiy mamlakatlarga necha mln dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilgani ta'svirlangan



Ushbu jadvaldan ko'rish mumkinki 7 yil davomida eng ko'p miqdorda to'qimachilik mahsulotlari 2019 yilda 1,6 mlrd dollarlik eksport qilingan. 2023 yilga borib bu ko'rsatkichlar asta sekinlik bilan pastlagan. Umuman mustaqillikka erishgan ilk yillarda respublikamiz yengil sanoatida faqatgina paxta xom ashyosi eksport qilingan bolsa, hozirda esa tayyor toqimachilik va yengil sanoat mahsulotlari yetkazib beruvchi eksportyor sifatida dunyo iqtisodiyotida oz ornini egallab kelmoqda. O'tkan yetti yil davrdagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ishlab chiqarishning hozirgi holati hech qanday holatda ko'ngildagidek emasligi ayon bo'ladi. Bugungi kunda to'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarishda sifat va narx mutanosibligi, daromad darajasi, aholi va demografik tuzilishi, iqlim va geografik xususiyatlari, dizayn va modaga muvofiqligi, mahsulot brendi, ijtimoiy va ekologik standartlarga muvofiqligi va boshqa raqobatbardosh xususiyat va funksiyalar saqlanib qolishi iste'molchi tanlovida qolmoqda. Mahsulot sifatini oshirish va assortimentini yaxshilash muammolari, birlamchi xomashyo ishlab chiqarishdan tortib to yakuniy tayyor mahsulot chiqarishgacha bo'lgan reja barcha jarayonlar bilan chambarchas bog'liq[6].

Xulosa: to'qimachilik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari davlat, hududlar va korxonalarining muvofiqlashtirilgan harakatlari orqali uzoq muddatli istiqbolda barqaror raqobatbardosh ustunliklarning yagona mexanizmini yaratish strategiyasiga asoslangan holda uni hal qilishda kompleks yondashuvga asoslanishi kerak. Bozor munosabatlari, tashkiliy – iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ayniqsa, aholining moddiy ahvolini yuksaltirish, marketing xizmati faoliyatini faollashtirishga muhim o'rin berilishi kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risi"da qarori, 21.12.2016 yildagi PQ-2687-son.
2. 2022-2026 yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. – T.: 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son.
3. Abduraxmanova.Sh.R. O'zbekistonda to'qimachilik sanoati raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari//International journal of theoretical and practical research// issue 3. 2023. 31-39.
4. Sirojiddinova Y.I Axmedova M. F. Хозирги босқичда тўқимачилик саноатида бўлаётган илмий тадқиқотлар//Science and innovation internation scientific journal issue 4. 2022. 190 – 195 b.
5. Komilov .A.Q. Resurstejamkor texnologiya asosida yangi tarkibiy tuzilishli kimyobop to'qimalarini ishlab chiqarish//Theory and analytical aspects of recent research international scientific-online conference //Part 9, Issue 1: November 9th 2022. - 12-15 b.
6. Abduraxmanova, Sh.R., (2022). To'qimachilik sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni bosharish strategiyasi. Far PI, ITJ, maxsus son (5).
7. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi: Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi.